



MAQSUD SHAYXZODA “TOSHKENTNOMA”
ASARI TAHLILI

Toshkent davlat transport universiteti
talabasi: **Komilov Akrom Oybek o‘g‘li**

Annotasiya: Ushbu maqolada ikki xalq farzandi Maqsud Shayxzodaning O‘zbekistonga bag‘ishlangan she‘rlari tahlil qilinadi. Shuningdek, she‘rning hayotiyligini, ta‘sirchanligini ta‘minlagan badiiy san‘atlar haqida fikr bildiriladi. Badiiy adabiyotning umuminsoniy qadriyatlarni tarannum etish, millatlarni, xalqlarni ezgulikda birlashtirishdek bosh vazifasi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Doston, obraz, vazn, ohang, talmeh, takrir, tashbeh, poetik fikr, epiklik, liriklik, syujet va kompozitsiya.

Maqsud Shayxzoda XX asr o‘zbek madaniyati rivojiga katta hissa qo‘shgan shoir, dramaturg, olim, tarjimon va pedagogdir. So‘z san‘atida Vatan onaga qiyos qilinadi. Shoir "Ozarbayjon" she‘rida : deydi va bir satrda Vatanni ham onaga, ham otaga tashbih qilib poetik ma‘noni kuchaytiradi. Maqsud Shayxzoda she‘rlari poetik fikrning samimiyligi bilan ajralib turadi. Shoir she‘rlarida O‘zbekiston madhi o‘zbek xalqining fidoiy farzandlariga bag‘ishlovlariday yangraydi. Shoirning “Yaxshilik” she‘ri G‘. G‘ulomga, “Sahna qahramoni” Shukur Burxonovga, “Xiyobon” she‘ri Mirtemirga bag‘ishlangan. Maqsud Shayxzoda 1944-yili “Jaloliddin Manguberdi” dramasi, 1961-yilda “Mirzo Ulug‘bek” fojiasini yaratadi.

Shayxzoda, o‘zi e‘tirof etganidek, she‘riyatda zamonaviy voqelikni, dramaturgiyada esa tarixiy o‘tmishni tasvirlashga hamda xalq va mamlakatning dardli masalalarini o‘tmishga bag‘ishlangan asarlarida ifodalashga intildi. U o‘zining dostoni orkali xalqimizning mehnat qahramonligi, kurash va jang, ozodlik va do‘stlik, baxt va alam, yurtning go‘zal manzaralari va insonning ma‘naviy jamoli mening qalamimga oshno va dilimga mazmun bo‘lib keldi. Shayxzodaning she‘r va dostonlari



shunday rang-barang mavzularga bag'ishlangani bilangina emas, turli vazn va janrlarda yozilgani bilan ham o'zbek she'riyatini boyitgani shubhasizdir.

Shoir "Toshkentnoma" lirik dostonida bunday yozgan edi:

Umrim bino bo'ldi Ozarboyjonda,
Kechdi bolaligim u gul makonda.
Nizomiy vatani, Ganja o'lkasi
O'lkamga to'ldirdi she'r havosin...
Lekin shoirlikning nozik tolei
Kuldi Sirdaryoning havzalarida.
O'zbek quyoshining chin otaligi
Aks etdi mastoba kosalarida.
O'zbek vodiysida otimni surdim,
Aziz yo'ldoshlar-la o'toldim, yurdim.
Yo'q, men taqdirimdan emasman xafa,
Shoirlik unvoni baxtimdan tuhfa!..

Shoir ijodiy biografiyasida "Toshkentnoma" dostoni alohida o'rin tutadi. Bu asarni unga eng og'ir kunlarida boshpana va panoh bo'lgan shahri azimga bo'lgan muhabbati o'laroq yaratilgan desak yanglishmagan bo'lamiz. Maqsud Shayxzodadan bizga ulkan meros qoldi. Uning she'riyati ko'ngillarni xushnud etishda davom etmoqda, dramalari sahnalarda qo'yilmoqda. Maqsud Shayxzoda o'zbek va ozarbayjon xalqlarining mustahkam do'stligi ramzi, ikki xalq farzandi sifatida mangulikka daxldordir. Maqsud Shayxzoda ijodiy balog'atidan dalolat beruvchi asarlardan biri "Toshkentnoma" dostonidir. Adabiy jamoatchilik o'z vaqtida bu dostonni shoirning adabiyotimizning yirik ijodiy muvaffaqiyati sifatida baholadi. Chindan ham, "Toshkentnoma" Shayxzoda dostonlari ichida eng barkamoli bo'lib, unda shoir shaxsiyatining o'ziga xos qirralari ancha yorqin namoyon bo'lgan. Dos tondagi o'ziga xoslik shundaki, asar yaxlit voqea asosiga qurilgan emas.

Shoir ijodining o'ziga xos xususiyatlaridan biri badiiy fikr ifodalashda tashbih va talmeh san'atidan mahorat bilan foydalanishidir. Tashbih - qiyoslash, o'xshatish san'ati bo'lsa, talmeh - mashhur zotlarga ishora qilib fikrda chaqmoq chaqilishidir.



Shoir "Toshkentnoma" falsafiy dostonida: Yashadim 30 yil bunda chamasi, Bu yerda tug'ilgan G'afur va Oybek, Umrimning boshlang'ich mavsumlarida Meni ardoqlashdi quchib og'adek, Inilik ko'rsatdim ta'zimlarimda... Biri - she'rimizning o'tli yuragi, Biri - nasr uyining baland tiragi Ochdilar uy bilan qalb eshiklarin, Ayamay o'git va mezbonliklarin. Yigitcha edim men havaskor, sodda, Bo'ldim oqibatda shoir Shayxzoda!.. deydi, shukronalik bilan. Shoirning 1957-yilda yaratilgan "Toshkentnoma" dostoni o'zbek xalqi ko'rsatgan "og'alik" mehri uchun, bergan non-u tuzi uchun, shukronalik dostonidir. Hazrat Navoiyning o'pib qo'lini O'zbek vodiysida otimni surdim, Ijod karvonining uzoq yo'lini Aziz yo'ldoshlar-la o'toldim, yurdim. Maqsud Shayxzoda 1928-yili hurfikrliligi, Ozarbayjonni mustaqil davlatga aylantirish yo'lidagi erkin fikrlari uchun ayblanib, 20 yoshida Toshkentga surgun qilingan. Shoirning dastlabki ijod namunalari 1929-yildan O'zbekistonda e'lon qilingan. 30-yillarda "O'n she'r", "Undoshlarim", "Uchinchi kitob", "Jumhuriyat" nomli to'plamlari dunyo yuzini ko'rди.

Shu yillarda "Kurash nechun", "Jang va qo'shiq", "Kapitan Gastello", "Ko'ngil deydiki" to'plamlari yaratildi. 50-yillarda "On besh yilning daftari", "Olqishlarim", "Zamon torlari", "Shu'la", "Chorak asr devoni", "Dunyo boqiy", "Xiyobon" she'riy to'plamlari yaratildi. O'zbekistonda shoir Shayxzoda bo'lib elga tanildi, e'zoz topdi. Shoir 1958-yilda nashr qilingan "Chorak asr devoni"ga kirgan "Oqsoqol" dostonida "Oxunboboning o'g'li Yo'ldoshboy" portretiga, xalqning otaga bergan bahosini, hayotiy chizgilarga soladi: O'lkani bilar besh qo'li kabi: Nima xohlaydi dehqonning ta'bi? Necha so'm bo'ldi Xorazmda non? Shu ko'klam qalay ko'kning avzoyi? Payqaydi g'o'za poyasi shu dam Necha zarralab o'sib ortadi, Olma guliga necha qatra nam Chustda shabnamdan qo'nib yotadi. Maqsud Shayxzoda "Badiiy adabiyot bizning go'zal do'stimiz" maqolasida: "...Poeziya kishida nozik, ajib tuyg'ular uyg'otadi. Kishi ruhini hamma holatlari -quvonch, umid, sevgi, do'stlik, sog'inish, kutish, ayriliq, hasrat, qayg'u, ishonch, baxt.juda ko'p marotaba shoirlar tomonidan kuylangan mavzulardir.She'r kishi ruhining serohang sozi!"- deb yozadi.[2.21] Shoir she'rlarida O'zbekiston "Osiyo siynasida yashil bog'iston", "Ipakobod ataladi elda Marg'ilon", "Sharqning yorug' derazasi - ming ko'cha



Toshkent”, “Gilam kabi yoyilibdi Chimyon darasi” kabi qator tashbihlar bilan ziynatlangan. Maqsud Shayxzoda har bir asarida yangi soʻzlar yarata olgan ijodkordir: Ipakobod, dilxat, vafokorlik, qalbdosh, nurobod, ma'nidor, hamsaf, g'ayratmand, qaymoqdon, pahlavonvor, umrdosh....

Shoir she'rlaridagi bunday so'zlar poetik fikrga jilo bergan, badiiy so'zning ohanrabosini oshirgan.

"Ikki do'st va bir tarjimon" she'rida shoirning ozarbayjon va o'zbek xalqiga ayricha mehri tasvirlangan. She'rning hayotiyligi shundaki, o'zbek, ozarbayjon, uyg'ur, qoraqalpoq, turkman, gagauz, qrim-tatar, qorachay-bolqor, qo'miq, no'g'ay, tatar, boshqird, shor, xakas, tuva, yoqut, chuvash... 30 dan ortiq turkiy millatlarning ildizi bitta, ular bir-birlarini tarjimonsiz tushunadi. Turkiy millatlarni ildizi baquvvat, ming yillik chinor daraxtiga qiyos qilsak, uning katta bir shoxi - o'zbek, bir katta shoxi - turkman, ozarbayjon, qoraqalpoq, qirg'iz, qozoq, turk...

Ikki kishining ozarbayjoncha va o'zbekcha samimiy muloqoti, she'rga joziba bag'ishlagan. Ikki kishi turgandi Xazar bo'yida, Krasnovodsk portida, aprel oyida. Bittasining boshida Chustning do'ppisi, U birining boshida ozariy popoq... Biri so'rar: "Ay gardosh horolisan san? Birinchining javobi - Man Gubadanam. Samur bosar tarafda bir o'bodanam". Ikkinchining javobi: - men Quvadanman, Farg'ona tarafida bir uvadanman.

Biri so'rar: "Ay gardosh, odini so'yla!" Ikkinchi der: - Hay qardosh, otingni so'yla! Bittasining javobi: - "Odim Pirmurod" Ikkinchining javobi: - "Otim Ermurod" Biri so'rar: "Ay gardosh san na ishdasan?" Ikkinchi der: Hay qardosh, nima ishdasan? Birinchining javobi: - "Kasbim bog'bonlig'!" Ikkinchining javobi: - Kasbim bog'bonlik!... Ikki do'stni begona ajratolmaydi: Bu turganning qay biri ozarbayjonlik? Suhbatdoshning qay biri o'zbekistonlik? Dastavval quloq solib ularga sekin, Gaplarin tushuntiray degandim.. .Lekin -Qarasam til topishgan do'stlar begumon. Ularga nima kerak tag'in tarjimon?! Maqsud Shayxzoda "Bir-biriga shogird, bir-biriga ustoz" maqolasida haqli ravishda yozganlaridek: "O'zbeklarning va ozarbayjonlarning qardoshligi va azaliy do'stligi o'rtadagi masofaning uzoq bo'lishiga qaramasdan ajoyib va oliyjanob ittifoqning ko'p ibratli namunasini yaratdi.



Bu do'stlik va chin rag'bat ikki xalqning ruhiy olamini, badiiy xazinasini boyitishga xizmat qilgan.

Alisher Navoiy o'z “Xamsa” sining har bir dostoniga debocha qilib kirgizgan qismlarida Nizomiyga alohida bob bag'ishlaydi va uni o'ziga haqiqiy ustoz deb ta'riflaydi. Shuningdek, ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliy o'z “Layli va Majnun” dostonida Navoiyni katta hurmat bilan tilga oladi. Shoirning “Chorak asr devoni” to'plamida “Qardoshlik ruboiylari” deb nomlangan fasl bor. Shu faslga kirgan ruboiylaridan birida bu ikki xalq birday ishlatadigan doyi so'zi qo'llangan. Doyi - ozarbayjoncha va Xorazm shevasida tog'a demakdir:

Ko'rkam adabiyotning bosh vazifalaridan biri ezgu so'z orqali millatlarni, xalqlarni, davlatlarni tinchlik, mehrparvarlik, oqibatdoshlik yo'lida birlashtirishdir.

Shuning uchun ham buyukki, so'z bilan odamlarni birlashtirish, so'z orqali ularni bir-birlari bilan yuzko'rmas qilib yuborish mumkin, so'z bilan mehr qozonish, so'z bilan nafrat va adovatga yo'liqish mumkin. Odamlarni bir-biridan ajratadigan so'zni aytishdan saqlan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamurova, F. I. (2023). The Fundamental Theorem of Axonometry and Axonometric Projections. AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT, 2(4), 223-226.
2. Islamovna, M. F. (2024). THE CREATION OF MAQSUD SHAYKHZODA- AS A GOLDEN LEGACY. " XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2(1), 90-93.
3. Mamurova, F., & Obutjonova, D. (2023). KKI XALQ DILBANDI-MAQSUD SHAYXZODA. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(11), 12-13.
4. Mamurova, F. I. (2023, November). KKI XALQ DILBANDI-MAQSUD SHAYXZODA. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 1, No. 5, pp. 51-52).



5. Farxodovich, P. G. U. (2023, May). Elastik Poydevor Ustidagi Nurlarni Hisoblash Uchun. In International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (pp. 198-202).
6. Ilhom o'g'li, M. E., & Oybek o'g'li, K. A. (2023, November). MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI VA IJODINI TARG 'IB QILISH. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 1, No. 5, pp. 53-55).
7. Mamurova, F. I., & Mustafoev, E. (2021, October). Aksonometrik Proyeksiyalarning Asosiy Teoremasi. Dimmetrik Aksonometriya Qurish. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 100-103).
8. Mamurova, F. I. ugli Mustafayev, EI (2021). SHADOWS IN A PERSPECTIVE BUILDING. Conferencious Online, 16-18.
9. Amirkulovich, T. S. (2023, May). APPLICATION OF MODERN SMALL MECHANISMS IN RAILWAY TRACK REPAIR. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 172-176).
10. Mikhailovna, M. M., Uglu, M. E. I., & Uglu, K. J. J. (2023). DIGITAL TECHNOLOGIES WHEN PERFORMING WEIGHING CALCULATIONS. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(6), 44-46.
11. Sulaymanovna, S. S. (2023, May). «CHANGING EDUCATIONAL STRATEGIES FOR TEACHING FOREIGN LANGUAGES AT UNIVERSITY: FROM LEARNING TO TEACHING STRATEGIES. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 6, pp. 103-108).
12. Pirnazarov, G. U. F. (2023). KO 'NDALANG KESIMI TRAPETSIYASIMON BO 'LGAN TEMIR BETON TUTASH BALKALARNI HARAKATLANUVCHI YUKKA HISOBLASH. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(5), 29-34.
13. Mamurova, F. I., & Mustafoev, E. (2021). Basic Theorem of Axonometric Projections. Dimetric Axonometry Construction. In ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 100-103).



14. Tursunnazar o'g'li, O. J., & Ilhom o'g'li, M. E. (2023, May). ODDIY FERMA STERJENLARIDA QO'ZG'ALMAS YUKLAR TA'SIRIDAN ZO'RIQISHLARNI TOPISH, ODDIY FERMA STERJENLARIDAGI ZO'RIQISHLARI UCHUN TA'SIR CHIZIQLAR QURISH VA ULARNI BERILGAN YUK BILAN YUKLASH. In International Conference on Research Identity, Value and Ethics (pp. 262-268).
15. Begali o'g'li, A. E., Ilhom o'g'li, M. E., & Tursunnazar o'g'li, O. J. (2023). EKSKAVATORLAR BILAN GRUNT QAZISH TEXNOLOGIYALARI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(24), 132-140.